



MILLIY FOND BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO FOND BOZORLARIGA INTEGRATSIYA JARAYONI

Maxmudov Samariddin Baxriddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Moliya bozori va sug'urta ishi" kafedrasida PhD dotsenti.

email: s.makhmudov@tsue.uz

Jomurodov Hasan

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistr

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 7 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss7/a26	<i>Ushbu maqolada O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish va xalqaro fond bozorlariga integratsiyasini ta'siri baholangan. Shuningdek, bugungi kunda moliya tizimlarini shakllantirayotgan bir sharoitda, xalqaro fond bozorlariga integratsiyalashuv O'zbekiston uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, fond bozorida likvidlik va samaradorlikni oshirishning dolzarb muammo va echimlari yoritilgan.</i> <i>Kapital bozori, fond bozori, xalqaro transformatsiya, qimmatli qog'ozlar, birjalar, korporativ boshqaruv, listing kompaniyalar, IPO.</i>
KEYWORDS	

Kirish (Introduction/Введение).

Jahon tajribasidan ma'lumki, milliy iqtisodiyotga investitsiya jalb etishning muhim vositalaridan biri sifatida fond bozori imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Bu bozor moliya tizimining asosiy bo'g'ini sifatida uning barqarorligi va mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Jahon amaliyotidan ma'lumki, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish katta hajmdagi sinvestitsiyalarni talab qiladi. Bu jarayonda moliya bozorlari, xususan, fond bozori muhim o'rin tutadi.

Xalqaro iqtisodiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki so'nggi yillarda fond bozori jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirish uchun vosita bo'lib xizmat qilib, iqtisodiy o'sishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Uning funksiyalari moliyaviy operatsiyalar doirasidan tashqarida bo'lib, kapitalni jalb qilish, resurslarni taqsimlash, tadbirkorlik, daromadlarni oshirish, moliyaviy jarayonlarni va global integratsiyani o'z ichiga oladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar rivojlanishda va o'sishda davom etar ekan, fond bozori farovonlikning ajralmas dvigateli bo'lib qoladi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi, dinamikni rag'batlantiradi va barqaror rivojlanishga turtki bermoqda. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish va uning xalqaro fond bozorlariga integratsiyalashuvi zarurati oshib bormoqda. Fond bozori jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirish orqali iqtisodiy o'sishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [1].

Biroq, uning samarali rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan bir qator muammolar mavjud, jumladan past kapitallashuv, rivojlangan infratuzilmaning mavjud emasligi va murakkab huquqiy asialr shular jumlasidandir [2]. Ushbu muammolarni hal etish uchun mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etish, qonunchilik bazasi va soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, axborotning ochiqligi tamoyilini joriy etish kabi aniq talablar ishlab chiqilmoqda [3].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.

Xorijiy olimlar tomonidan fond bozorini rivojlantirish va xalqaro fond bozorlariga integratsiyasini ta'minlash va rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy ishlanmalarga olib borgan. Xorijlik olimlar tadqiqotlarida fond bozorini rivojlantirishning turli jihatlariga alohida qarab o'tgan.

Xususan, xorijlik olimlar Dhyani, A. va boshqalar o'z tadqiqotlarida fond bozori iqtisodiyotining muhim tarmog'iq hisoblanib, investorlar va kompaniyalar o'zaro hamkorlik qilgan holda innovatsion platformalarda moliyaviy vositalar oldi sotdisini amalga oshirishini ta'kidlagan [4]. Olimlarning tadqiqot natijalar shuni ko'rsatdiki, innovatsion texnologik platformalar doimiy ravishda fond bozorini o'zgartirgan va bu iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib xizmat qilgan.

Nehkhollen Haokipga ko'ra qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan fond birjasi kapital harakati va iqtisodiy rivojlanish samaradorligini aks ettiradi, qimmatli qog'ozlar savdosi uchun virtual bozor vazifasini bajaradi [5]. Fatma Zaaroura ko'ra qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish va uning xalqaro fond bozorlariga integratsiyalashuvini ta'minlash milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish va jahon moliyaviy aloqalarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. [6].

Tadqiqotchi 1996-2018 yillar davomida 23 ta rivojlanayotgan mamlakatlar uchun fond bozori kapitallashuvi va xalqaro moliyaviy integratsiya o'rtasidagi munosabatlarni o'rgangan. Tadqiqot natijalar shuni ko'rsatdiki, xususiy kapital oqimlari kiritilganda fond bozori va moliyaviy integratsiya o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarni ko'rsatgan. Shuningdek, xalqaro moliyaviy integratsiya va fond bozorlari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda xalqaro kapital oqimlarining (to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va pul o'tkazmalari) o'zgaruvchanligini hisobga olishning yangiligi ta'kidlangan.

Abuselidze, G va boshqalarga ko'ra xalqaro hamkorlikni kengaytirish va xorijiy investorlarni jalb qilish milliy fond bozorlarini jahon maydoniga integratsiyalashuvining asosiy bosqichi ekanligini ta'kidlagan [7].

A. Slobodanyknin fikricha qimmatli qog'ozlar bozorining o'zgaruvchanligi valyuta qiymatlari va xalqaro savdoga ta'sir qilishi mumkin, bu esa suzuvchi valyuta kursi mexanizmiga ega raqobatbardosh fond bozori zarurligini ta'kidlaydi [8]. Xorijlik olimlar G. A.Raju va S.P. Veliplar o'z ilmiy ishlarida qimmatli qog'ozlar bozori integratsiyasi vaqt o'tishi bilan, ayniqsa 1999 yildagi Osiyo moliyaviy inqirozi va 2008 yilgi

global moliyaviy inqiroz kabi yirik inqirozlardan keyin tezlashganligini ta'kidlagan [9].

Xitoylik iqtisodchi olimlar Nguyen va boshqalarga ko'ra moliyaviy integratsiya va rivojlanish milliy fond bozorining jahon bozori bilan integratsiyalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsashini, xalqaro savdo integratsiyasi esa kichik o'zaro savdo hajmi tufayli kamroq ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. [10].

A.V. Ramazanovning fikricha fond bozori orqali investitsiya amaliyotini jalb qilish kompaniyalarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim omil hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozori kompaniyalar uchun o'sish va rivojlanish uchun kapital jalb qilish uchun muhim platforma bo'lib xizmat qiladi [11].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar Yu.Nichkasova va boshqalar tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida o'rni yuqori ekanligini ta'kidlab ular emitent, investor va vositachi sifatida faoliyat yuritib, investorlar uchun fond bozorining mavjudligini ta'minlashini izohlagan. Olimlar, 1996-2018 yillar davomida Belarus, Qozog'iston va Rossiyaning korporativ sektori tomonidan investitsiyalarni jalb qilish amaliyotini tahlil qilgan [12].

Shuningdek, L.Sava va boshqalar tadqiqotlarida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va iqtisodiy jarayonlarda investitsiya amaliyotini rag'batlantirishda fond bozorining rivojlanishiga xizmat qilishini ta'kidlagan. Fond birjalari milliy iqtisodiyot doirasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning samarali mexanizmi sifatida ishlaydi [13].

Tadqiqotchilar fond bozori kapital harakatini osonlashtiradi, iqtisodiy rivojlanish uchun mablag'larning muvozanatli taqsimlanishiga yordam beradi [14,15].

Investitsiyalarni jalb qilish va kompaniyalarga o'z loyihalari uchun mablag'larni jalb qilish imkonini berish orqali fond bozori iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ishlab chiqarish faoliyatini yangilash uchun muhim vositaga aylanadi. [16,17].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqot o'tkazishda ko'rsatkichlarni solishtirish, taqqoslash, induksiya, ekonometrik modelashtirish, deduksiya, pozitivizm, eksperimentlar va so'rovnomal, natijalarni tanlanmadan populyasiyaga qarab umumlashtirish, emitatsion model va boshqa usullardan foydalaniladi. Shuningdek, amalga oshirilayotgan tadqiqotda, ob'ektiv, ilmiy usullardan foydalaniladi hamda sabab va natija ko'rinishidagi statistik dizayn ishlatiladi. Tadqiqot ma'lum vaziyatlarni o'z ichiga oladi. Natijalarni umumlashtirishlar prognoz qilishga, tushunishga olib keladi. Natijalarni ishonchligi tekshiruvlar, bir qator testlar orqali tasdiqlanadi. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish va xalqaro fond bozorlariga integratsiyasini ta'minlash istiqbollari o'rganish maqsadida, moliya bozori o'zgarishlarining avvalgi va keyingi makroiqtisodiy o'zgarishlari tahlil qilindi.

Olingan natijalar (Rezultats/Результаты). Olib borilgan tahlillar natijasida milliy fond bozorining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri kelgusi yillardagi istiqbolli o'sish dinamikasi ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, moliya bozorini rivojlanishiga to'siq bo'layotgan holatlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari asoslab berilgan.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Tadqiqot manbalari O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi (www.stat.uz), O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma'lumotlari (www.cbu.uz), O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalarmilliy agentligi korporativ axborot yagona portalidagi xisobotlari (www.openinfo.uz), xorijiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, internet manbalari, kutubxona kataloglari va boshqa ma'lumotlarga tayangan holda tayyorlanadi. Tadqiqot savoli yuzasidan shuningdek, xorij tajribasini o'rganish maqsadida adabiyotlar, Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi singari yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, axborot-tahliliy byulletenlari va ilmiy maqolalar, internet manbalardan olingan ma'lumot bazalaridan foydalaniladi.

Milliy fond bozori jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltirish, risklarni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy rivojlanish uchun kapitalni safarbar qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda fond bozorining samaradorligi moliyaviy jarayonlarni rag'batlantirish, uzoq muddatli jamg'armalarga ko'maklashish va iqtisodiyot o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega. [18,19].

Milliy fond bozorida qimmatli qog'ozlar orqali jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirishning muhim vositasi bo'lib, ushbu holatda

iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Biroq kapitallashuvning va infratuzilmanining etarli darajada emasligi, murakkab huquqiy tizimlar va cheklangan investorlarni himoya qilish mexanizmlari uning optimal ishlashiga to'sqinlik qilmoqda [20,21].

Qimmatli qog'ozlar bozori samaradorligini oshirish uchun mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish, dividendlar daromadini oshirish, qonunchilik va soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, bitimlarni sug'urtalash mexanizmlarini rivojlantirish, axborot shaffofligini ta'minlash kabi chora-tadbirlarning ahamiyatini oshirib boradi [22, 23].

O'zbekistondagi fond bozori samaradorligini baholash, uning faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilish va takomillashtirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat (1-rasmga qarang).



1-rasm. O'zbekistonda fond bozori samaradorligini baholash.¹

Yuqoridagi 1-rasmga ko'ra milliy fond bozorini samaradorligini baholashda quyidagicha izohlash mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorining tuzilishi va me'yoriy-huquqiy bazasi uning samaradorligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda "Toshkent fond birjasi" qimmatli qog'ozlar savdosining asosiy platformasi bo'lib xizmat qiladi. Biroq, bozor ancha rivojlangan moliyaviy bozor platformalariga nisbatan kichik va chuqurlikka ega emas. Bozor samaradorligini oshirish uchun shaffoflik, korporativ boshqaruv va investorlar himoyasini oshirishga qaratilgan tartibga soluvchi islohotlar muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha milliy fond bozori samaradorligini oshirishda va xalqaro fond bozorlariga integratsiyasini rivojlantirishda qimmatli qog'ozlar bo'yicha ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq oshkor etilishini ta'minlash muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni ta'minlashda bir qancha muhim yo'nalishlar talab etiladi (2-rasmga qarang). O'zbekiston fond birjasidagi aksiyadorlar tarkibini ularning ulushlari hajmiga ko'ra tasniflash mumkin. Odatda, aksiyadorlar uchta asosiy guruhga bo'linadi: kichik, o'rta va yirik aksiyadorlar. Kichik aksiyadorlar, odatda, kompaniyaning umumiy muomaladagi aksiyalarining 1% dan kamrog'i bo'lgan aksiyalarning minoritar foiziga, o'rta aksiyadorlar 1% dan 10% gacha bo'lgan o'rta ulushga hamda yirik aksiyadorlar esa umumiy aksiyalarning 10% dan oshib ketadigan muhim egalik ulushlariga ega.

Aksiyadorlar tarkibini aksiyalar hajmi bo'yicha tahlil qilish O'zbekiston fond birjasidagi mulkchilik dinamikasi, korporativ boshqaruv amaliyoti va bozor dinamikasi haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Yirik aksiyadorlar listing kompaniyalari ustidan sezilarli ta'sir va nazoratga ega, kichik aksiyadorlar esa o'z huquqlarini himoya qilish va korporativ qarorlarga ta'sir qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Shuningdek, milliy fond bozorida 2024 yil 1 aprel holatiga qimmatli qog'oz oldi sotdi amaliyotlarini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar quyida keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Qimmatli qog'ozlar oldi sotdi amaliyotlarini amalga oshiruvchi ishtirokchi yuridik shaxslar

№	Ishtirokchilar	Soni
1	Qimmatli qog'ozlar emitentlari	629
2	Deponentlar	816 087
3	Investitsiya vositachilari	47
4	Investitsiya fondlari	9
5	Investitsiya fondi aksiyadorlari	50 907
6	Investitsiya aktivlarini boshqaruvchilar	31


1-jadval ma'lumotlaridan, milliy fond bozorining xalqaro maydonga integratsiyalashuvi global iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va investitsiya imkoniyatlari yo'lidagi muhim qadamni anglatadi. 629 ta qimmatli qog'ozlar emitentlari, 816 087 ta depozitorlar, 47 ta investitsiya vositachilari, 9 ta investitsiya fondlari, 50 907 ta investitsiya fondlari aksiyadorlari va 31 ta investitsiya aktivlari boshqaruvchilaridan iborat mustahkam va dinamik bozor ekotizimini ifodalaydi.

Shuningdek, 629 ta qimmatli qog'ozlar emitentlarining mavjudligi davlat investitsiyalari orqali moliyaviy mablag'larni izlayotgan turli xil kompaniyalarni aks ettiradi. Bu xilma-xillik nafaqat mahalliy, balki xalqaro investorlar uchun investitsiya tanlovlarini kengaytiribgina qolmay, turli tarmoqlar bo'yicha sog'lom investitsiya imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shuningdek, deponentlar soni 816 087 tagacha o'sishi fond bozorida ishtirok etayotgan investorlar bazasi ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu, iqtisodiy barqarorlik, me'yoriy-huquqiy bazalar va jozibador daromad olishning potentsial ta'minlanganligi bilan investor ishonchini oshiradi.

47 ta investitsiya vositachilarining mavjudligi tranzaksiyalarni osonlashtirish va investitsiya xizmatlarini ko'rsatish uchun yaxshi rivojlangan infratuzilmani ko'rsatadi. Ushbu vositachilar investorlarni qimmatli qog'ozlar emitentlari bilan bog'lash, maslahat xizmatlarini ko'rsatish va bozor qoidalariga rioya qilishni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, 9 ta investitsiya fondi va 50 907 ta investitsiya fondi aktsiyadorlarining mavjudligi jamoaviy investitsiya vositalariga nisbatan o'sish tendentsivasidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy fond bozorining xalqaro maydonga integratsiyalashuvi qimmatli qog'ozlar emitentlari, investorlar, vositachilar, investitsiya fondlari va aktivlarni boshqaruvchilarning ko'pligi bilan ajralib turadigan jonli va diversifikatsiyalangan bozor ekotizimini keltirib chiqaradi.

Bugungu kunda, milliy fond bozorida ulush hajmi bo'yicha aksiya egalari tuzilmasi quyidagi ko'rinishni ifoda etmoqda (2-rasmga qarang).



2-rasm. Milliy fond bozorida ulush hajmi bo'yicha aksiya egalari tuzilmasi.²

2-rasmga ko'ra O'zbekiston milliy fond bozorida aksiyalar tarkibi turli sub'ektlarga tegishli bo'lgan aksiyalar hajmiga qarab taqsimlanadi.

Davlat organlari doirasidagi xo'jalik boshqaruvi uchun mas'ul bo'lgan organlarga tegishli bo'lgan aksiyalarning ulushi 3848,8 mlrd.bo'lib ushbu aksiyalar, hukumatning muayyan sektorlaridagi tarmoqlarini bevosita ishtirokini va nazoratini ifodalaydi.

Davlat ulushiga ega bo'lgan tashkilotlar davlat korxonalari va davlat ulushi katta bo'lgan tashkilotlarga tegishli bo'lgan aksiyalar kiradi. Ushbu tashkilotlar ulushi 158 340,3 mlrd bo'lib milliy fond bozorida davlat mulkining ustunligini ko'rsatadi, bu iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari ustidan hukumat nazoratini aks ettiradi.

References:

1. Khakimovna, R. N. (2024). Integration of Uzbekistan into the International Financial System. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 5(1), 106-111.
2. Asrorbek, B. (2023). DEVELOPMENT OF THE FINANCIAL MANAGEMENT SYSTEM IN UZBEKISTAN. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*, 3(03), 25-31.
3. Ataniyazov, J., & Sayfullokhon, N. (2022). Stock Market in Uzbekistan: Current Situation and Development Prospects. *British Journal of Multidisciplinary and Advanced Studies*, 3(1), 1-10.
4. Dhyani, A., Bisht, D., Kathuria, S., Gehlot, A., Chhabra, G., & Tiwari, P. (2023, April). Cyber Physical System Role in Stock Market. In 2023 IEEE Devices for Integrated Circuit (DevIC) (pp. 203-206). IEEE.
5. Nehkhohen, Haokip. (2022). The role of Stock market in Economic Growth: Empirical Evidence from India. *Veethika: an international interdisciplinary research journal*, 8(1):25-32. doi: 10.48001/veethika.2022.08.01.006
6. Zaarour, F., & Ajimi, A. (2021). International Financial Integration and Stock Market in Developing Countries. *Journal of Business & Economics Review (JBER)*, 6(2).
7. Abuselidze, G., & Tarasovych, L. (2020). The mechanism of integration of the Ukrainian stock market in the world stock market. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 157, p. 04034). EDP Sciences

Joylashtirish jarayonidagi korxonalar aksiyalari hozirda birlamchi ommaviy takliflar (IPO) yoki aksiyalarni joylashtirishning boshqa shakllari jarayonidan o'tayotgan kompaniyalarning aksiyalari nazarda tutiladi. Ular aksiyalar umumiy hajmining 1,5 foizini tashkil etib, 2 852,5 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu aksiyalar yangi kompaniyalarni joriy etish yoki davlat korxonalarini xususiyashtirish hisobiga fond bozorining kengayishi davom etayotganidan dalolat beradi.

Boshqa aksiyadorlar xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat tashkilotlari va joylashtirish jarayonidagi korxonalardan tashqari barcha boshqa aksiyadorlar kiradi. Ular umumiy aksiyalar hajmining 13,1 foizini tashkil etadi, bu taxminan 24 793 milliard so'mni tashkil etadi. Bu aksiyadorlar, ehtimol, xususiy investorlar, institutsional investorlar, xorijiy investorlar va fond bozorida ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi taqsimotga ko'ra O'zbekiston fond bozorida davlat mulkining sezilarli darajada mavjudligini, xo'jalik boshqaruvi organlari va davlat tashkilotlari aksiyalarning asosiy qismiga birgalikda egalik qilishini ta'kidlaydi. Bu davlatning mamlakat iqtisodiyotidagi ishtiroki va nazorati yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения). Tadqiqotga ko'ra milliy fond bozorini xalqaro fond bozoriga integratsiyasini takomilashtirish bo'yicha va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish bo'yicha olib borilgan tahlillar va xulosalar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Fond bozori va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik qimmatli qog'ozlar iste'moli va bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir qiladi. Kapitalning kirib kelishi investitsiyalar uchun mablag'lar taqdim etish orqali qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabni rag'batlantiradi va shu bilan savdo hajmi va bozor ishtirokini oshiradi. Texnologik innovatsiyalar onlayn savdo, mobil banking va elektron pul o'tkazmalarini amalga oshirish orqali bank xizmatlari samaradorligini oshiradi.

2. Xalqaro fond bozoriga integratsiya amaliyotida texnologik innovatsiyalar investitsiyalarni rag'batlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va bozor samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga yordam beradi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va portfel oqimi bandlik imkoniyatlarini yaratadi, texnologik transfemi rag'batlantiradi va iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.

3. Shuningdek, texnologik innovatsiyalar samaradorlikni oshiradi, tadbirkorlikni rivojlantiradi va iqtisodiy diversifikatsiyani rag'batlantiradi. Biroq, kapital oqimi va texnologik innovatsiyalarning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun qo'llab-quvvatlovchi huquqiy va ijro etuvchi tizimlar muhim ahamiyatga ega. Aniq va ijro etilishi mumkin bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, samarali qonunchilik bazasi va shaffof boshqaruv tuzilmalari kapital oqimi va texnologik innovatsiyalarning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi va shu bilan barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

4. Fond bozori orqali kapital oqimi va texnologik innovatsiyalar milliy fond bozoridagi moliyaviy infratuzilma, institutlar va tartibga soluvchilarga ham ta'sir etadi. Kapital oqimining ortishi mustahkam moliyaviy infratuzilmani, jumladan, savdo maydonchalarini, kliring va hisob-kitob tizimlarini hamda bozorni nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirishni taqozo etadi.

8. Slobodanyk, A., Abuselidze, G., & Tarasovych, L. (2020). The mechanism of integration of the Ukrainian stock market in the world stock market. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 157, p. 04034). EDP Sciences.
9. AnjanaRaju, G., & Velip, S. P. (2019). Stock market integration: A review of literature from a global perspective.
10. Nguyen, H. T. B. T. (2017). Financial development, international trade, and stock market integration: Evidence in six southeastern Asia countries.
11. Ramazanov, A. V. (2022). On the issue of ensuring the stock market availability for commercial banks. *Science Vector of Togliatti State University. Series: Economics and Management*, (2), 44-50.
12. Nichkassova, Y. O., Shmarlouskaya, H. A., & Sadvokassova, K. Z. (2019). Attracting investments from the global and local IPO markets: A case study of Belarus, Kazakhstan and Russia. *Voprosy Ekonomiki*, (12).
13. Sava, L., Tîrşu, V., & Cristişor, D. (2023). Activation of attraction processes of investments into national economy through capital market. In *Electronics, Communications and Computing* (pp. 276-279).
14. Tanja, Basic. (2023). Фондовий ринок як інструмент стабілізації економічного розвитку України. *Časopis ekonomicnih reform*, 55-59. doi: 10.32620/cher.2022.4.08
15. He, B., Jie, W., He, H., Alsubih, M., Arnone, G., & Makhmudov, S. (2024). From resources to resilience: How green innovation, fintech and natural resources shape sustainability in OECD countries. *Resources Policy*, 91, 104856.
16. T, G, Polozova., Sergii, Stepanenko., Olena, Murzabulatova., T., E., Gorodetska. (2023). Theoretical principles of the formation and development of the stock market of Ukraine. *Ukrains'kij žurnal prikladnoï ekonomiki*, 8(1):260-265. doi: 10.36887/2415-8453-2023-1-38
17. Махмудов, С. (2022). ИСТОЧНИКИ И МЕТОДЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЛОГИСТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(1), 205-211.
18. Gulomjonov, F. (2022). Economic Policy Reforms in Uzbekistan: Achievements, Current Situation and Future Perspectives. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(12), 22-27.
19. Махмудов, С. (2021). Пути улучшения механизмов финансирования логистических компаний. *Экономика и образование*, (3), 237-242.
20. Zaynalov, J. R., & Alieva, S. S. (2022). Development of financial services in the republic of Uzbekistan. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(6), 11-16.
21. Махмудов, С. Б. (2020). Инвестиция фоалиятини молиялаштиришнинг ноанъанавий усулларини такомиллаштириш.«. *Халқаро молия ва ҳисоб» илмий журнал*, 5.
22. A., Ibodullaev. (2021). Development of the Organized Securities Market in Uzbekistan. 7(3):236-242. doi: 10.33619/2414-2948/64/25
23. Makhmudov, S. (2020). Improvement of Unconventional Methods of Financing Investment Activities. *International Finance and Accounting*, 2020(5), 22...